



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi

Elektron nashr. 284 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil mayda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 28-fevraldagi 333/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	14
Umida Kakhramonova Gayratovna, Tillayev Khurshidjon Sulaymon oglu	
Current state and development prospects of tourism: comparative analysis and Uzbekistan's experience.....	20
Risolatbonu Shakhzodova, Laziza Khalilova, Nabijonov Biloliddin, Aziza Usmanova	
Инновационные подходы к повышению эффективности корпоративного управления.....	26
Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, Уринов Бабур Насиллоевич	
Startup проекты и их реализация	30
Ёдгорова Мухайе Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна	
Methodology of Teaching English: Traditional and Modern Approaches	34
Ravshanova Ziyoda Qahramon Qizi, Xoliqova Dilafruz Shuhratovna	
Государственный кредит и государственный долг.....	37
Срождиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Сравнительный анализ реформ государственных финансов в Китае и Грузии: уроки для Узбекистана	42
Срождиддинова Зарина Хайриддиновна, Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи	
Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni takomillashtirish	49
Shakarov Shahzod Sobir o'g'li, Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Esanov Oybek Madatovich	
Sustainable consumption and production: economic challenges and solutions.....	55
Abdullayev Abdug'ofur, Abdubaxromov Abduazim, Eshniyozov Ozodbek, Azizbek Abdullayev	
Traffic congestion in Uzbekistan: causes and strategic solutions	60
Abdulloh Qodirov, Imron Egamberdiyev, Isomiddin Ravshanov, Munisa Bekmirzayeva	
The relationship between corruption and economic growth.....	64
Jurayev Jo'rabek, Abdullayeva Aziza, Mamatova Sarvinoz, Maha Ibrahim	
Crisis management in the tourism industry	74
Ikromova Munisa, Bahodirova Mohigul, Xalimova Dilbar, Abdullajonova Muslimabonu	
Impact of the touristic indicators on the poverty rate.....	80
Abdumanova Maftuna, Azizova Ruhshona, Shavkatova Mubiynabonu, Durдона Bahodirova	
Bringing sustainability: the role of the green economy in enhancing resource efficiency	91
Salokhiddinova Farangiz, Mardonov MuhammadYusuf, Shovkiyeva Munisa, Ahmadova Xurshida	
The relationship between innovation and environmental emissions.....	98
Mamadiyorova Ruxshona, Nurullayev Asliddin, Abduraimov Sardor Anvar o'g'li, Aysayeva E'zoza	
Green finance unlocked: innovations, challenges in Uzbekistan's perspectives.....	107
Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna, Jamolova Madina Talgatovna, Lola Qidiralieva Ulug'bekovna	
Turning the tide: how Uzbekistan can tackle its water crisis	115
Rixsiboyev Mirhaydar, Orazov Kamron, Baratov Shakhriyor, Bahromjon Urmanov	
Drivers and losses of economic development of Tashkent: a desk study.....	125
Zaribbaeva Komila Ulugbek qizi, Durдона Davletova	
The digital economy in Uzbekistan: challenges and opportunities.....	133
Ro'zmatov Asror, Bo'riyev Javohir, Safarov Habibullo, Mubina Toirova	
Analysis of water consumption in Uzbekistan	139
Rayimjonova Gulsora, Sarvinoz Murodova, Yahyoyeva Nurhayo, Durдона Zaynutdinova	



Global leadership and cross-cultural management: an empirical analysis of intercultural communication competence (icc) in uzbekistan	144
Dr. Eka Surchman, ST, MT, Annisa ciptagustia, SE, M.SI, Abdurakhmanova Iroda Gulmurod qizi	
iqtisodiy masalalarni matritsa nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	154
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Raqamli to'lov tizimlarining naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni	167
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
Рост зеленой экономики во всем мире	172
Баймурадова Зилола Алишеровна, Бобуржон Бахриддинович Избосаров	
Raqamli iqtisodiyotda soliq boshqaruvining transformatsiyasi: soliq tizimining avtomatlashtirilishi samarasi	181
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Problems and prospects of developing small business in uzbekistan under the conditions of a green economy	187
Baymuradova Zilola Alisherovna, Boburjon Bahriddinovich Izbosarov	
Turizm va mehmondo'stlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri	197
Anvarova Muhsinaxon Otabek qizi	
Zamonaviy mehnat bozorida axborot asimmetriyasi va uning oqibatlari	203
Tojiyev Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda xususiy tadbirkorlikni o'rni	206
Ergasheva Dilnoza Anvar qizi, Absamatov Asqar Ergashovich	
Ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirishning amaliy yo'nalishlari	211
Almuratova Nurlio'Imasoy Naym qizi	
Xususiy sektorni moliyalashtirishning ichki va tashqi mexanizmlari va boshqaruv tizimlarini takomillashtirishning ayrim istiqbolli tomonlari	214
Ametov Quvandik Mamatjanovich, Karrieva Dildora Ruslan qizi	
Yashil energetika - barqaror iqtisodiyotning kaliti sifatida	219
Sharipboyev Husanboy Marks o'g'li, Umirov Islombek Furkatovich	
Moliyaviy regulyatsiya va fiskal siyosat orqali xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishning nazariy asoslari	225
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
The importance of foreign investments in the economic development of the country	229
Rahmonov Samandar, K.J. Matkarimov	
Nostandart bandlik tushunchasi va uning mintaqani rivojlantirishdagi ahamiyati	235
Abdikarimova Zuxra Baxramovna, Saida Eshchanova	
O'zbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish	240
Poyonov Otabek Abdiqaxxor o'g'li, Almardonov Muxamadi Ibragimovich, Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich	
Xorazm viloyatida yashil iqtisodiyotni yo'lga qo'yishdagi muammolar va ularga innovatsion yondashuv	244
Ravshanbekova Madina Davlatboy qizi	
O'zbekiston xalqaro bozorga integratsiyalashuv jarayonida qishloq xo'jaligi ayrim mahsulotlarini yetishtirishning o'ziga xos jihatlari	247
O'razboyeva Farangiz Quadrat qizi, Ametov Quvandik Mamatjanovich	
The role of profitability in evaluating enterprise performance	251
Kholiqulov A.N., Khlomurodova S.A.	



Yaponiyada demografik muammo va uning iqtisodiyotga ta'siri.....	256
Mamatov Sardor Ilyasovich, Shoydulova Maftuna Zafar qizi	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish tajribalari.....	262
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna, Otamuratova Dilnoza Dilmurod qizi	
Sanoat korxonalarida asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarining tahlili.....	265
Islomov Shuhrat Marufjonovich, Qarshiev Avazbek Sa'dullaevich	
Talabalarda moliyaviy savodxonlikni shakllantirishda Pareto qoidasini tadbqiq etishning muhim hususiyatlari	272
Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi, Nasrullayev Omonulloxon Nodirjon o'g'li, Asqarov Abrorjon Xayitmirzayevich	
Sanoat siyosatining nazariy va empirik asoslari	277
Sobirxo'jayev Xadyatillo, Hashimov P.Z.	



KIRISH

Sanoat siyosati — hukumat tomonidan ma'lum tarmoqlarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan iqtisodiy choralar majmuasidir. Bu siyosat bugungi kunda global miqyosda dolzarb mavzulardan biriga aylangan. So'nggi o'n yilliklarda yuzaga kelgan yirik iqtisodiy silkinishlar — 2008-yilgi global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, COVID-19 pandemiyasi, hamda geosiyosiy o'zgarishlar sanoat siyosatiga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirdi. Xususan, "barcha muammolarni bozor mexanizmlari hal qiladi" degan nazariy qarashlar o'rniga, ko'plab davlatlar yirik tiklanish rejalarini amalga oshirish doirasida strategik tarmoqlarga davlat investitsiyalarini yo'naltirmoqda.

Sanoat siyosatining dolzarbligi bozordagi cheklovlar va muvaffaqiyatsizliklar haqidagi xulosalar bilan izohlanadi. Bozor mexanizmlari ayrim hollarda ijtimoiy jihatdan samarali natijalarga erishishni ta'minlay olmasligi mumkin. Bunday holatlar, ayniqsa, yangi texnologiyalar yoki endigina shakllanayotgan tarmoqlar (infant industries) misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Shunday vaziyatlarda davlat aralashuvi iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va strategik tarmoqlarni shakllantirish vositasi sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Zotan, global raqobat va iqlim o'zgarishi kabi omillar sharoitida bozorni o'z holiga tashlab qo'yish yetarli emasligi, aksincha, hukumatlarning faol sanoat siyosatini yuritishi zarurligi haqidagi qarashlar kuchayib bormoqda.

Mazkur maqola davlatlarning sanoat siyosatini olib borishi zarurligini asoslashga qaratilgan bo'lib, unda nazariy yondashuvlar va empirik dalillar tahlil qilinadi. Avvalo, bozorning o'zida mavjud cheklovlar va davlat aralashuvining iqtisodiy zarurati haqida asoslovchi nazariyalar ko'rib chiqiladi. Keyin esa rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat siyosatining amaliy natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, XXI asrning asosiy yo'nalishlari — "yashil iqtisodiyot" va raqamli texnologiyalar asrida sanoat siyosatining yangi shakllari muhokama qilinadi. Yakunda esa O'zbekiston sharoitida faol sanoat siyosatini ishlab chiqish imkoniyatlari va zaruriy shart-sharoitlar asosida xulosa va takliflar bildiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat siyosatining XXI asrdagi ahamiyatiga oid nazariy va empirik bahslar so'nggi yillarda iqtisodiy adabiyotda keng muhokama qilinmoqda. Dani Rodrik (2008), Mariana Mazzucato (2013), Ha-Joon Chang (2002) kabi yetakchi iqtisodchilar o'z tadqiqotlarida davlat aralashuvi bozor muvaffaqiyatsizliklarini bartaraf etish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va strategik tarmoqlarni shakllantirishda muhim vosita bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

Tarixiy nuqtai nazardan, Friedrich List (1841) ilk bor sanoatni proteksion choralar orqali rivojlantirish g'oyasini ilgari surgan bo'lsa, XX asrda Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va boshqa davlatlar bu yondashuvni amalda qo'llagan. Alice Amsden (2001) va Robert Wade (1990) Sharqiy Osiyodagi "kech sanoatlashuvchilar" tajribasini o'rganib, davlat tomonidan eksportga yo'naltirilgan sanoat siyosati tez iqtisodiy o'sishga olib kelganini ilmiy asosda isbotlagan.

Yangi tuzilma iqtisodiyoti (Lin & Monga, 2013) davlat aralashuvini bozorga qarshi emas, balki uni to'ldiruvchi va strategik yo'naltiruvchi vosita sifatida asoslaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, hukumatlar bozor signallariga mos tarzda aniq tarmoqlarni qo'llab-quvvatlovchi siyosat yuritishi mumkin.

Empirik manbalar, jumladan UNIDO (2022) va OECD (2023) hisobotlarida sanoat siyosatining turli shakllari (vertikal, gorizontal, yashil) taqqoslanadi va ularning natijalari baholanadi. JST (2019) esa sanoat subsidiyalarining xalqaro savdo normalariga zid kelmasligi masalasini ko'taradi.

Mazkur adabiyotlar sanoat siyosatining shakllari, uni amalga oshirish sharoitlari va muvaffaqiyat mezonlarini ochib beradi. Ular asosida O'zbekiston uchun qanday dizayndagi sanoat siyosati samarali bo'lishi mumkinligi aniqlashtiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola sifatli tadqiqot metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, unda adabiyot tahlili, qiyosiy tajriba o'rganish va statistik ko'rsatkichlarga asoslangan empirik tahlil usullari qo'llanilgan.

Tadqiqot doirasida O'zbekiston iqtisodiyotining tarmoq tuzilmasi, mavjud strategik hujjatlar (xususan, 2023-yilgi Sanoat siyosati konsepsiyasi), iqtisodiy salohiyat va cheklovlar kompleks tarzda tahlil qilingan. Ular asosida mamlakat sharoitlariga mos, zamonaviy sanoat siyosatini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga, sanoat siyosatining aniq ta'sirini izolyatsiya qilishdagi murakkablik, O'zbekiston bo'yicha ayrim statistik ma'lumotlarning yetishmasligi va davlat siyosatining nisbatan yangi bosqichda ekani ushbu tadqiqotning asosiy cheklov omillari sifatida tan olingan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy nazariyada sanoat siyosati masalasi turlicha talqin qilinadi. Neoklassik yondashuv bozorlarning o'zini o'zi tartibga solish qobiliyatiga ishonadi va davlat aralashuvi resurslarning noo'rin taqsimlanishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ushbu nuqtai nazarga ko'ra, subvensiyalar, tariflar yoki soliq imtiyozlari kabi choralar bozor signallari va rag'batlarini buzib, iqtisodiy samaradorlikni pasaytirishi ehtimoli mavjud. Mazkur yondashuv davlat aralashuvining natijasi ko'pincha "hukumat muvaffaqiyatsizligi" bilan yakunlanishini, ya'ni siyosiy lobbizm va mansabdorlarning manfaatparastligi sababli siyosat noto'g'ri yo'naltirilishini alohida ta'kidlaydi¹.

Biroq, keynsian yondashuv rivojlanishi bilan bozor har doim ham optimal ishlay olmasligi haqidagi fikrlar kuchaygan. John Maynard Keynes bozor inqirozga uchragan vaziyatlarda davlatning faol ishtirokini zarur deb bilgan. Ayniqsa, endigina shakllanayotgan sanoat tarmoqlarida xususiy sektor kapital va tajriba yetishmovchiligi sabab sust harakat qilishi mumkin. Shu bois, vaqtincha himoya va qo'llab-quvvatlash orqali davlat ushbu tarmoqlarning mustahkamlanishiga yordam berishi mumkin. Bu qarash iqtisodiy adabiyotda "infant industry argument" nomi bilan mashhur bo'lib, yangi tarmoqlar xorijiy raqobatchilarga nisbatan iqtisodiy miqyosdan foyda olish imkoniyatiga ega bo'lmagani uchun, muayyan muddat davomida importdan himoyalaniishi va subvensiyalar orqali qo'llab-quvvatlanishi lozim degan g'oyani ilgari suradi. Garchi qisqa muddatda bunday yondashuv ma'lum xarajatlarni talab qilsa-da, uzoq muddatda bu tarmoqlar raqobatbardosh bo'lib, iqtisodiyotga foyda keltirishi mumkinligi qayd etiladi².

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, bugungi rivojlangan davlatlarning aksariyati aynan shunday "nazoratli himoya" yondashuvidan foydalangan. Masalan, iqtisodchi Friedrich List 1841-yilda Angliya o'z sanoatini himoya tariflari orqali rivojlantirgach, boshqa davlatlardan erkin savdo talab qilganini "narvonga chiqib olib, boshqalarning chiqish yo'lini berkitish" bilan taqqoslagan edi. Ha-Joon Chang kabi zamonaviy olimlar esa "bugungi boy davlatlar kechagi sanoat siyosatining mevalarini yeyib, hozir boshqalarga bu yo'ldan borishni tavsiya etmayapti" deya e'tiroz bildiradilar³. Darhaqiqat, AQSh XIX–XX asr boshlarida proteksionizm va davlat yordami orqali sanoatlashuvga erishgan. Yaponiya va Germaniya esa urushdan keyingi davrda yuqori tariflar va davlat investitsiyalari yordamida iqtisodiy "mo'jiza"larni yaratgan.

Yangi tuzilma iqtisodiyoti nazariyasi (Justinus Lin va boshqalar) sanoat siyosatini zamonaviy va kontekstga mos talqinda izohlaydi. Unga ko'ra, har bir davlat o'zining nisbiy ustunliklariga asoslangan holda faol sanoat siyosatini yuritishi mumkin. Bunda siyosat "bozorga qarshi" emas, balki bozor signallari va tendensiyalarini inobatga olgan holda "bozor bilan birga" olib borilishi lozim⁴. Masalan, hukumat bozordagi talab yuqori bo'lgan mahsulotlar yoki yangi texnologiyalar yo'nalishini aniqlab, ushbu sohalarga infratuzilma, kredit, ilmiy tadqiqotlar uchun grantlar ajratish orqali xususiy sektorni qo'llab-quvvatlovchi ("facilitator") rolini bajaradi. Bunday yondashuv bevosita rejalashtirishdan ko'ra, tadbirkorlikni rag'batlantirish va iqtisodiy ko'rsatkichlarni muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Davlat aralashuvini asoslaydigan nazariyalar bir qator umumiy tamoyillarga tayangan:

1. Bozor muvaffaqiyatsizliklarini tuzatish – eksternaliyalar, axborot assimetriyasi va koordinatsiya muammolari mavjud sharoitda bozor mustaqil ravishda optimal ishlay olmaydi.

2. Strategik tarmoqlarni rivojlantirish – har bir davlat mudofaa, texnologik suverenitet yoki oziq-ovqat xavfsizligi kabi sohalarni mustahkamlashni istaydi. Bu esa bozor signallariga bog'liq holda hal etilishi mumkin bo'lmagan vazifadir.

3. Iqtisodiy sikllarni yumshatish – inqiroz davrida davlat sarmoyasi va sanoatni qo'llab-quvvatlash o'sishni tiklashga xizmat qiladi (Keyns prinsipi).

4. Innovatsiya va struktura o'zgarishlarini jadallashtirish – fundamental tadqiqotlar va texnologik taraqqiyotda xususiy sektor tez daromad keltirmaydigan loyihalarga sarmoya kiritmaydi. Shu bois, davlat "tadbirkor davlat" sifatida dastlabki moliyalashtiruvchi rolini o'z zimmasiga oladi (Mariana Mazzucato yondashuvi).

Davlat aralashuvi qanday natijalar bergani tarixiy tajriba orqali yaqqol ko'rinadi. Ko'plab holatlarda muvaffaqiyatli sanoat siyosati yuritgan mamlakatlar tez sur'atlarda sanoat rivojlanishiga erishgan. Quyida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasidan ba'zi muhim misollar keltiriladi:

Ikkinchi jahon urushidan so'ng, Yaponiya Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi (MITI) mamlakatning sanoatlashuviga muhim hissa qo'shgan. 1950–60-yillar davomida MITI avtomobilsozlik, po'lat, kemasozlik va elektronika sohaslarini tanlab, ularni import cheklavlari, arzon kreditlar va eksport subsidiyalari orqali faol qo'llab-quvvatladi.

Natijada, 1960–70-yillarda Yaponiya sanoati jadal rivojlandi. Xususan, avtomobil eksporti jahon bozorida yetakchi o'rinlarga chiqdi, mamlakat yalpi ichki mahsuloti yiliga o'rtacha 9–10% o'sdi. Hayato Ikeda

1 Smith, A. (1776). An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nation

2 Keynes, J. M. (1936). The General Theory of Employment, Interest and Money. Macmillan.

3 Chang, H.-J. (2003). Kicking Away the Ladder: Development Strategy in Historical Perspective. Anthem Press.

4 Lin, J. Y. (2012). New Structural Economics: A Framework for Rethinking Development and Policy



boshchiligidagi “Daromadni ikki baravar oshirish rejasini” davlat investitsiyalari va rejalashtirish orqali Yaponiya iqtisodiyotining modernizatsiyasiga kuchli turtki berdi.

Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat siyosati oqilona darajadagi proteksionizm bilan uyg'unlashganda samarador natijalar beradi. Ayniqsa, MITI rahbarligida yapon kompaniyalari xorijiy texnologiyalarni o'zlashtirib, ishchi kuchi malakasini oshirishga va ichki bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlashga muvaffaq bo'ldi. Natijada, Yaponiya 1970-yillarga kelib AQSh va sobiq Sovet Ittifoqidan keyin dunyodagi uchinchi yirik iqtisodiyotga aylanishga erishdi. Mamlakat avtomobil va elektronika sanoati bo'yicha global yetakchi maqomini egalladi.

Janubiy Koreyaning XX asr ikkinchi yarmidagi “iqtisodiy mo'jiza”si davlat boshchiligidagi strategik sanoat siyosatining yorqin namunasi hisoblanadi. 1960–70-yillarda prezident Park Chung-hee rahbarligida O'rta va og'ir sanoatni rivojlantirish dasturi (HSI) amalga tatbiq etildi. Ushbu siyosat doirasida davlat xorijiy kreditlarni faqat tanlangan kompaniyalarga kafolatlab, ular uchun past foizli qarzlarni olish imkoniyatini yaratdi, shuningdek, eksportga yo'naltirilgan korxonalariga soliq imtiyozlari va subsidiyalar ajratdi.

Dastur asosiy e'tiborni po'lat, kemasozlik, avtomobilsozlik va elektronika kabi strategik tarmoqlarga qaratdi. Natijada Hyundai, POSCO va Samsung kabi yirik sanoat kompaniyalari shakllandi. Tadqiqotlarga ko'ra, 1970-yillarda berilgan vaqtinchalik subsidiyalar bekor qilinganidan keyin ham o'z ta'sirini uzoq yillar davomida saqlab qoldi — imtiyozlardan foydalangan kompaniyalar 30 yil o'tgach ham sotuv hajmi va o'sish sur'atlari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishgan.

Bu holat sanoat siyosati natijasida kompaniyalarning texnologik salohiyati va bozor ulushi uzoq muddatli raqobat ustunligiga aylanganini ko'rsatadi. Janubiy Koreya hukumati, ayniqsa, eksportni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratdi. “Export or die” (“Eksport qil yoki yo'qol”) shiori ostida har oy prezident ishtirokida eksport ko'rsatkichlari muhokama qilinib borildi. Ushbu siyosat 1990-yillarga kelib mamlakatni yuqori daromadli, texnologik rivojlangan davlatga aylanishiga imkon berdi.

Bugungi kunda Janubiy Koreyaning yalpi ichki mahsulotining qariyb 30 foizi yuqori texnologiyali sanoat eksporti hissasiga to'g'ri keladi. R&D (ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik) xarajatlari YAIMga nisbatan 4–5 foizni tashkil etadi — bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir (taqqoslash uchun: Germaniyada $\approx 3,1\%$, AQShda $\approx 3,6\%$, O'zbekistonda esa $\approx 0,16\%$)⁵.

Shunday qilib, Janubiy Koreya misolida davlat tomonidan strategik tarmoqlarga yo'naltirilgan investitsiyalar va siyosiy choralarning iqtisodiy taraqqiyotda samarali rol o'ynashi isbotlanmoqda.

An'anaviy ravishda bozor tamoyillariga tayanib kelgan AQSh ham so'nggi yillarda sanoat siyosati elementlarini faol qo'llay boshladi. Jumladan, 2022-yilda qabul qilingan “CHIPS and Science Act” orqali yarimo'tkazgichlar (mikrochip) ishlab chiqarishni rag'batlantirish uchun 52,7 milliard AQSh dollari miqdorida mablag' ajratilishi belgilandi. Ushbu qonun doirasida zavod qurilishi, ilmiy-tadqiqot ishlari va kadrlar tayyorlash subsidiyalarini oshirdi.

Tashqi (jumladan, Tayvan va Janubiy Koreyadagi) chip kompaniyalari AQShda zavod ochgan taqdirda, ular soliq imtiyozlari bilan ta'minlanmoqda. Natijada, bir qator yirik kompaniyalar AQShda 200 milliard dollardan ortiq xususiy investitsiyalar kiritish rejasini e'lon qildi. Davlat ko'magi uchun ariza bergan firmalarning umumiy so'rovlari qiymati 70 milliard dollardan oshdi — bu ajratilgan mablag'ning deyarli ikki barobaridir. Bu esa AQSh sanoat siyosatiga qaytayotganini anglatadi.

Shuningdek, 2022-yilda imzolangan “Inflation Reduction Act (IRA)” orqali iqtisodiy barqarorlik va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish maqsadida 369 milliard dollarlik sarmoya paketi belgilandi. Ushbu mablag'lar hisobidan qayta tiklanuvchi energetika (quyosh panellari, shamol turbinalari), elektromobillar va batareyalar ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari hamda grantlar ajratilmoqda.

Demokrat va Respublikachi siyosatchilar birdek ushbu choralarning milliy xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlamoqda. Shu tariqa, AQSh misolida ham global yetakchi davlatlar strategik tarmoqlarda raqobatbardoshlikni saqlab qolish maqsadida zamonaviy sanoat siyosatiga yuz tutayotganini kuzatamiz. Siyosatshunoslar bu jarayonni “yangi sanoat siyosati davri”ning boshlanishi deb atamoqda.

Xitoy Xalq Respublikasi so'nggi 40 yillikdagi iqtisodiy yuksalishni katta darajada davlat boshchiligidagi sanoat rivojlanish strategiyasi orqali amalga oshirdi. 2015-yilda e'lon qilingan “Made in China 2025” dasturi sun'iy intellekt, robototexnika, yangi avlod axborot texnologiyalari, elektr transport vositalari va aviakosmik sanoat kabi yuqori texnologik tarmoqlarda ichki yetakchilikka erishishni maqsad qilgan.

Ushbu strategiyaga muvofiq, hukumat mazkur sohalarga katta hajmdagi subsidiyalar ajratmoqda, davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlik kuchaytirilgan. Xorijdan texnologiyalarni litsenziyalash, ilg'or ilmiy kadrlarni jalb qilish uchun maxsus dasturlar yo'lga qo'yilgan. Bu yondashuv Xitoyga iqtisodiyot tuzilmasini qisqa fursatda o'zgartirish imkonini berdi: past qiymatli eksportdan yuqori qiymatli mahsulotlar eksportiga o'tish amalga oshdi.

5 UNESCO Institute for Statistics. (2022). How much does your country invest in R&D



Masalan, Xitoy bugungi kunda haligacha yarimo'tkazgichlarning katta qismini import qilayotgan bo'lsa-da, ichki bozor uchun yo'naltirilgan ulkan investitsiyalar evaziga yaqin yillarda mikrochip ishlab chiqarishda sezilarli yutuqlarga erishishni maqsad qilmoqda. Sun'iy intellekt va 5G texnologiyalarida esa Xitoy allaqachon dunyodagi yetakchi tadbqiqotchi va ishlab chiqaruvchiga aylangan. Bunda milliardlab dollarlik davlat dasturlari, jumladan, sun'iy intellekt bo'yicha milliy laboratoriyalar tarmog'i muhim rol o'ynagan.

Mazkur siyosat xalqaro hamjamiyatda muayyan e'tirozlarga ham sabab bo'lmoqda. G'arb davlatlari Xitoyni Jahon savdo tashkiloti qoidalarini buzishda, jumladan, xorijiy investitsiyalarga cheklov qo'yish, majburiy texnologik transferlar va yashirin subsidiyalar orqali adolatsiz raqobat yaratishda ayblamoqda. Shunga qaramay, Xitoyning so'nggi o'n yillikdagi sanoat siyosati mamlakatni yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti bo'yicha jahonda yetakchi o'ringa olib chiqdi va uning iqtisodiy qudratini sezilarli darajada mustahkamladi.

Yuqoridagi misollar sanoat siyosati turli shakllarda amalga oshirilishi mumkinligini ko'rsatadi — bevosita davlat korxonalarini orqali (sobiq Ittifoq modeli), xususiy sektorni rag'batlantirish va himoya qilish orqali (Sharqiy Osiyo modeli), hamda aralash yondashuvlar (Yevropa tajribasi) orqali. Asosiy xulosa shuki: agar sanoat siyosati puxta o'ylangan va amalga oshirilishi mukammal tashkil etilgan bo'lsa, u mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Sanoat siyosatining iqtisodiy samaradorligini baholashda turli statistik ko'rsatkichlar va empirik tadqiqot natijalariga tayanish maqsadga muvofiqdir. Quyida sanoat siyosati faol yuritilgan mamlakatlarning iqtisodiy indikatorlari tahlil qilinib, bunday yondashuvning natijaviy jihatlari yoritiladi.

Avvalo, sanoat ulushi va eksportda raqobatbardoshlik darajasini ko'rib chiqamiz. Sanoat siyosatini izchil amalga oshirgan mamlakatlarda ishlab chiqarish sanoatining yalpi ichki mahsulotdagi (YalM) ulushi yuqori darajada saqlanmoqda. Masalan, Germaniyada sanoat YalMning qariyb 20 foizini tashkil etadi, bu ko'rsatkich AQSh (11%) va Buyuk Britaniya (10%)ga nisbatan ancha yuqori. Shuningdek, Janubiy Koreya va Xitoyda sanoat ulushi 25–30 foizdan yuqori bo'lib⁶, ushbu mamlakatlarning iqtisodiyoti sanoatlashtirish tamoyillari asosida rivojlanayotganini tasdiqlaydi.

Yuqori sanoat ulushi yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti bilan uzviy bog'liq. Janubiy Koreya eksportining katta qismini yarimo'tkazgichlar, avtomobillar, kemalar va elektron qurilmalar tashkil etadi; bu esa yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushining 30 foizdan oshganini bildiradi. Taqqoslash uchun, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich atigi 5–10% atrofida bo'lib qolmoqda. Bu farq sanoat siyosati orqali ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik (R&D) faoliyatiga davlat tomonidan ajratilgan sarmoyalar, shuningdek, xususiy sektorni rag'batlantirish orqali yuzaga kelgan.

Masalan, R&D xarajatlarining YalMdagi ulushi Janubiy Koreyada 4,9%, Germaniyada 3,1%, Xitoyda esa 2,4% atrofida bo'lib, bu jahon o'rtacha ko'rsatkichidan (2,63%) yuqoridir⁷. Bu raqamlar ilmiy salohiyat va innovatsion imkoniyatlarning rivojlanishini ko'rsatadi. Ilmiy-tadqiqot faoliyati, o'z navbatida, yangi mahsulot va texnologiyalar yaratish, patentlar sonining ortishi hamda yuqori qo'shimcha qiymatga ega sanoat sohasining kengayishiga xizmat qiladi.

Janubiy Koreya, xususan, elektronika va axborot texnologiyalari sohasida global miqyosda yuzlab patentlarga ega bo'lib, yangi mahsulotlar ishlab chiqishga katta hissa qo'shmoqda. Ushbu yutuqlarning zamirida davlat tomonidan amalga oshirilgan maqsadli siyosatlar – ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish, muhandislik sohasida kadrlar tayyorlash, innovatsion klasterlarni shakllantirish – muhim o'rin egallaydi.

Aksincha, sanoat siyosati nisbatan sust yuritilgan davlatlarda R&D xarajatlari YalMning hatto 0,5 foiziga ham yetmaydi. Masalan, O'zbekistonda 2022-yil holatiga ko'ra, bu ko'rsatkich 0,16 foizni tashkil etdi. Bu esa innovatsion taraqqiyot va raqobatbardosh mahsulotlar yaratish borasidagi imkoniyatlar cheklanganligidan dalolat beradi.

Sanoat siyosatining eksport strukturasi va milliy iqtisodiyotning murakkablashuviga bo'lgan ta'siri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, XX asrning o'rtalarida asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xomashyo eksportiga tayanib kelgan Janubiy Koreya, Xitoy, Malayziya kabi mamlakatlar 30–40 yil davomida sanoat mahsulotlari, jumladan yuqori texnologiyali tovarlar eksportini 60–70 foizgacha oshirishga muvaffaq bo'ldilar.

Boshqa bir misol sifatida, Filippin va Vetnam 2010-yillarga kelib eksportidagi yuqori va o'rta-yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini mos ravishda 79,9% va 58,3% gacha yetkazdi. Ushbu natijalar davlat siyosati, sanoat subyektlarini qo'llab-quvvatlash va xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali erishilgan. Bu davlatlar global qiymat zanjirlarida faol ishtirok etmoqda: masalan, Vetnam Samsung kompaniyasining muhim ishlab chiqarish markaziga aylangan, Malyaziya esa Intel va AMD kabi chip kompaniyalari uchun integratsion mikroshemalarni ishlab chiqarmoqda.

Global qiymat zanjirlariga chuqur integratsiyalashuv esa mahalliy korxonalar bilim va ko'nikmalarini oshirish, eksportdan tushadigan barqaror daromadlar hamda bandlik darajasining o'sishiga sabab bo'lmoqda.

6 World Bank. (2023). World Development Indicators

7 OECD. (2023). Main Science and Technology Indicators. OECD Publishing



Ushbu holatlar sanoat siyosatining eksport hajmi va sifati, shuningdek innovatsion rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi.

To'rtinchi sanoat inqilobi davrida sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, kiberxavfsizlik kabi yo'nalishlar sanoat siyosatining muhim komponentlariga aylandi. Xitoy, AQSh va Yevropa Ittifoqi bu borada faol strategiyalar yuritmoqda. Masalan, Xitoy "Made in China – 2025" dasturi doirasida yarimo'tkazgichlar va sun'iy intellekt texnologiyalari bo'yicha importga bo'lgan qaramlikni bartaraf etish uchun milliardlab dollarlik maxsus jamg'armalarni tashkil etdi. Yevropa esa "Raqamli kompas – 2030" strategiyasi asosida qit'a miqyosidagi raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda texnologik mustaqillikka erishishni ko'zlamqda.

Yuqoridagi dalillar shuni ko'rsatadiki, sanoat siyosati yuritilgan mamlakatlar ko'p hollarda YalMning barqaror o'sishi, eksport hajmining oshishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi va texnologik taraqqiyot kabi muhim iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishgan. Albatta, bu yutuqlar faqat sanoat siyosati samarasigina emas, balki makroiqtisodiy barqarorlik, inson kapitali, xalqaro kon'yunktura kabi boshqa omillar bilan ham bevosita bog'liqdir. Biroq qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyoti diversifikatsiyalashgan va yuqori texnologiyali sohalarga ega mamlakatlarning deyarli barchasi o'z vaqtida sanoat siyosatini maqsadli tarzda amalga oshirgan.

Shu bilan birga, har qanday siyosat kabi, sanoat siyosatining muvaffaqiyati ham uni qanday va qanday sharoitda amalga oshirilishiga bog'liq. Biroq, muvaffaqiyatli tajribalar shuni tasdiqlaydiki, agar siyosat to'g'ri kontekstda ishlab chiqilsa va professional tarzda amalga oshirilsa, u ijobiy iqtisodiy natijalarga olib kelishi muqarrardir.

O'zbekiston Respublikasi ham so'nggi yillarda iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va sanoat salohiyatini oshirish bo'yicha faol harakatlar olib bormoqda. Hozirgacha mamlakatda asosan gorizontol yondashuv asosida – barcha sohalar uchun soliq imtiyozlari, umumiy investitsiya muhitini yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish kabi choralar ustuvorlik kasb etdi. Bu yondashuv ma'lum ijobiy natijalarni berdi: masalan, 2016–2022-yillar davomida sanoat ishlab chiqarishi hajmi 1,4 barobar oshdi.

Shunga qaramay, mamlakat sanoat tuzilmasi hali rivojlanish bosqichida qolmoqda. Ishlab chiqarishning asosiy qismini past va o'rta texnologik tarmoqlar tashkil etmoqda (masalan, oziq-ovqat sanoati, to'qimachilik, kon sanoati), yuqori texnologiyali tarmoqlarning ulushi esa hali past darajada. Farmatsevtika, elektronika va mashinasozlik kabi tarmoqlar sanoatning kichik qismini tashkil etmoqda. Eksport tarkibida ham xomashyo (oltin, gaz, paxta, metallar) va past qayta ishlangan mahsulotlar ulushi yuqoriligicha qolmoqda. 2023-yilda yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportining jami eksportdagi ulushi atigi 1,1 foizni tashkil etdi⁸.

Mazkur ko'rsatkichlar O'zbekistonda sanoat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish va yuqori texnologik tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha tizimli va maqsadli choralarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Ayrim sanoat tarmoqlarida O'zbekiston uchun yuqori salohiyat mavjud. Jumladan, qishloq xo'jaligi texnikasi yo'nalishida sobiq Ittifoqdan meros qolgan sanoat bazasi va malakali kadrlar mavjudligi, to'qimachilik sohasida esa mustahkam xomashyo bazasining shakllangani, kimyo va farmatsevtika tarmoqlarida esa ichki bozor hajmining katta bo'lishi va ko'p yillik amaliy tajribaning mavjudligi ushbu tarmoqlarda ustuvorlik asosida vertikal sanoat siyosatini yuritish imkonini beradi.

Mazkur yondashuv asosida yaqin 5–10 yilda ushbu yo'nalishlarda xalqaro bozorga raqobatbardosh mahsulotlar yetkazib berishga erishish mumkin. Masalan, qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarishda mahalliyashtirish darajasini oshirish maqsadida traktor va kombayn ishlab chiqaruvchilarga maxsus soliq imtiyozlari, texnologik modernizatsiyaga yo'naltirilgan grantlar hamda mahsulotlarni xorijiy bozorga olib chiqish uchun eksport kreditlari taqdim etilishi amaliy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik (R&D) ishlanmalariga xususiy sektor tomonidan ajratilayotgan investitsiyalar hajmi yetarli emas. Yuqorida qayd etilganidek, 2022-yil holatiga ko'ra, R&D xarajatlari YalMning atigi 0,16 foizini tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkichni oshirish uchun sanoat korxonalarini bilan davlatga qarashli ilmiy-tadqiqot institutlari va texnoparklar o'rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish zarur.

Sanoat siyosati doirasida R&D faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qator mexanizmlarni joriy etish mumkin. Jumladan, R&D xarajatlari uchun soliq kreditlari taqdim etish, innovatsion mahsulot yaratgan korxonalarini davlat mukofotlari bilan rag'batlantirish, shuningdek, startap tashabbuslarni moliyalashtirish uchun maxsus jamg'armalar tashkil etish taklif qilinmoqda.

O'zbekistonning geografik joylashuvi – ya'ni dengiz yo'llaridan uzoqligi – logistika tizimini raqobatbardosh qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu boisdan, eksport qiluvchi sanoat klasterlari atrofida logistika markazlarini barpo etish, ushbu hududlarda bojxona va soliq yengilliklarini joriy etish strategik ahamiyat kasb etadi. Masalan, "Farg'ona vodiysi to'qimachilik klasteri" yoki "Toshkent elektrotexnika klasteri" konsepsiyalari asosida klasterlarda faoliyat yuritayotgan korxonalarga eksport qilingan mahsulotlarning tannarxiga proporsional ravishda davlat subsidiyalari ajratilishi mumkin.

Shuningdek, bunday klasterlarda joylashgan korxonalar uchun sertifikatlashtirish va standartlashtirish bo'yicha davlat xizmatlarini bepul ko'rsatish ham eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga,

8 State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. (2024). Foreign Trade of the Republic of Uzbekistan: 2023 Results



xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida davlat tomonidan klasterlar uchun zamonaviy infratuzilma – avtomobil yo'llari, energetika quvvatlari – bilan ta'minlash, hamda imtiyozli shartlarda yer uchastkalarini ajratish mexanizmlari qo'llanilishi lozim.

Sanoat siyosatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan unda belgilangan aniq maqsadli indikatorlar va ularni amalga oshirish muddatlari bilan belgilanadi. Shu sababli, ishlab chiqiladigan har bir sanoat siyosati dasturida sektorlar kesimida KPI (asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari) tizimi joriy etilishi lozim. Bular qatoriga quyidagilar kiradi: ajratilgan subsidiyalarning mahsulot tannarxiga ta'siri, ishlab chiqarilgan mahsulotlardagi qo'shilgan qiymat ulushining oshishi, yaratilgan yangi ish o'rinlari soni va boshqa tegishli ko'rsatkichlar.

Davlat ushbu ko'rsatkichlarni har yili monitoring qilib borishi va zarurat tug'ilganda tegishli tuzatishlar kiritishi kerak. Agar ayrim loyihalar kutilgan samarani bermasa, u holda resurslarni boshqa istiqbolli yo'nalishlarga yo'naltirish, ya'ni "pivot" amaliyotini joriy etish zarur. Bunday holatlarda qarorlar faqatgina real va dolzarb ma'lumotlarga asoslanishi, mustaqil tahlil markazlari va ekspert xulosalari inobatga olinishi lozim.

Sanoat siyosatining O'zbekistonda muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo, uning ochiqligi va shaffofligiga bog'liq. Davlat tomonidan moliyaviy ko'mak olayotgan kompaniyalar va loyihalar to'g'risida jamoatchilik muntazam ravishda xabardor qilinishi, ajratilgan mablag'larning natijalari ochiq ravishda e'lon qilinishi zarur. Bu yondashuv korrupsiyaning oldini olishga, manfaatlar to'qnashuvining bartaraf etilishiga xizmat qiladi.

Ilg'or xalqaro tajriba sifatida ta'kidlash joizki, Jahon banki ko'magida bir nechta rivojlanayotgan davlatlarda subsidiyalar va grantlar ajratish jarayoni ochiq ma'lumotlar platformalari orqali amalga oshirilmoqda. O'zbekiston ham ushbu tajribani joriy etishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan nazariy asoslar va empirik tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, hukumat tomonidan sanoat siyosatining shakllantirilishi va uni ilmiy asosda oqilona amalga oshirilishi iqtisodiy o'sish, tarkibiy transformatsiya va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Sanoat siyosati bozordagi "e'tibordan chetda qolgan" yo'nalishlarga dastlabki turtki beradi, biznes muhitini faollashtiradi va yangi tarmoqlar rivojlanishiga imkon yaratadi.

Albatta, sanoat siyosati hamma holatda universal yechim (ya'ni "panatseya") sifatida qabul qilinmasligi lozim. Uni noto'g'ri qo'llash resurslarning samarasiz yo'naltirilishiga, raqobatning susayishiga yoki monopoliyalar shakllanishiga olib kelishi mumkin. Biroq, to'g'ri tanlangan, real iqtisodiy sharoitlarga moslashtirilgan va professional tarzda amalga oshirilgan sanoat siyosati mamlakatning mavjud iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rodrik, D. (2008). *Industrial Policy: Don't Ask Why, Ask How*. Middle East Development Journal, 1(1), 1–29.
2. Lin, J. Y., & Monga, C. (2013). *Against the Consensus: Reflections on the Institutional Approach to Development*. World Bank Research Observer.
3. Chang, H. J. (2002). *Kicking Away the Ladder: Development Strategy in Historical Perspective*. Anthem Press.
4. Amsden, A. H. (2001). *The Rise of "The Rest": Challenges to the West from Late-Industrializing Economies*. Oxford University Press.
5. Wade, R. (1990). *Governing the Market: Economic Theory and the Role of Government in East Asian Industrialization*. Princeton University Press.
6. OECD. (2023). *Industrial Policy for the 21st Century*. OECD Publishing.
7. Hausmann, R., Rodrik, D., & Sabel, C. (2008). *Reconfiguring Industrial Policy*. Harvard University Working Paper.
8. UNIDO. (2022). *Industrial Development Report*. United Nations Industrial Development Organization.
9. IMF. (2021). *Fiscal Monitor: Strengthening the Credibility of Public Finances*. International Monetary Fund.
10. WTO. (2019). *Subsidies and Countervailing Measures*. World Trade Organization Report.
11. Mazzucato, M. (2013). *The Entrepreneurial State*. Anthem Press.
12. Baldwin, R. (2016). *The Great Convergence: Information Technology and the New Globalization*. Harvard University Press.
13. European Commission. (2021). *A New Industrial Strategy for Europe*. Brussels.
14. Ministry of Economy and Planning, Uzbekistan. (2023). *Industrial Policy Concept Paper*. (Loyiha hujjati).
15. Krueger, A. O. (1990). *Government Failures in Development*. Journal of Economic Perspectives, 4(3), 9–23.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>